



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Nabiyev Ismat**

Samarqand shahar 29-maktab o'qituvchisi

## **BOSHLANG'ICH SINIF MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MULTEMEDIYADAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO'LLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslarida multemediyadan foydalanishning samarali yo'llari va musiqa faoliyatini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Multimediya, mediya, animatsiya, dizayn, audio, innovatsion, kompetensiya, makromediya

Respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jamiyatimizni iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Mana shunday o'zgarishlar barcha jabhalarda b o'lgani singari ta'lim-tarbiya tizimida izchillik bilan amalga oshirilmoqdaki, bu ta'limni milliy asoslarda rivojlantirish va takomillashtirishda o'z samaralarini berayotganligi quvonarli hol.



Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek: «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz, deb bilamiz».-deya ta'kidladilar [1,1]

Darhaqiqat, O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasi va uni isloh qilishning asosiy omili bu shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligidir. Hozirda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan jihozlanayotgani bejiz emas. Zero, ta'lim mazmunini va sifat ko'rsatgichi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar hamda kompyuter vositalaridan foydalanib dars jarayonini ko'rgazmali tashkil qilish orqali o'quvchilarni teran va mustaqil fikrlashga o'rgatish, ta'limning sifat-samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlaring bajarilishini ta'minlash, o'quvchilarni musiqiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bizning asosiy maqsadimiz zamonaviy texnologiyalar, multimediya vositalari yordamida tashkil qilingan darslar orqali ularda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish va ta'lim samaradorligini oshirishga erishishdir.[2,278]

“Multimediya” tushunchasi nimani anglatadi va kompyuter vositasi orqali ta'lim samaradorligini oshirishda qanday imkoniyatlarga ega?

Media s o'zining asosiy ma'nosini ma'lumotlarni aholiga yetkazish vosita va turlari deb tushunish mumkin. Multi degani ko'p, ko'p qirrali deganidir.[3,187] Media manbalariga elektron darsliklar va dars ishlanmalari, grafika, interfaol o'yinlar, modellar, multimedia-panorama, video-lavhalar, audioyozmalar va hok. kiradi. Bular ichida kompyuterda tayyorlangan animatsiyali, ya'ni jarayonlarni harakatda tasvirlanadigan kompyuter dasturlari alohida o'rin tutadi. Chunki animatsiyali k o'rgazmalar o'quvchining ongida chuqur joylashadi. Hozirgi vaqtda, kompyuterlarning texnikaviy ta'minoti jadallik bilan rivojlanish vaqtida, ularning dasturiy ta'minotining imkoniyatlari ham kengayib bormoqda.

Binobarin, ta'lim tizimida olib borilayotgan juda katta ko'lamdagi kompyuterlasirish ishlaridan asosiy maqsad ta'lim muassasalarini kompyuterlashtirishgina emas, balki kompyuterlashtirish orqali ta'limni axborotlashtirishdan iborat.



Shundan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan, multimediya vositalaridan foydalanib dars o'tish o'quvchilarda nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash bilan birga ularda Vatanga muhabbat, musiqani sevish, tabiatni asrash kabi fazilatlarni, musiqiy dunyoqarashni va estetik didni shakllantirib boradi. Bizga ma'lumki boshlang'ich sinf musiqa madaniyati darslari 3 ta xususiy kompetensiya mavjud:


1.Xor b o'lib kuylash.

2.Musiqa savodi.

3.Musiqa tinglash

Mazkur kompetensiyalar negizida o'quvchilarni, musiqa darsiga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ularda musiqa taassurotlarini tarkib toptirish va zaruriy musiqiy ko'nikmalarni hosil qilish asosiy vazifa qilib quyiladi. Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari ko'proq o'yin shaklida tashkil etiladi, agarda darsni musiqa xarakteriga mos harakatlar bajarish va xor bo'lib kuylash faoliyatida kompyuterda tayyorlangan animatsiyali, ya'ni harakatli jarayonlardan foydalanilsa, o'quvchilarning bilim olish sifat samaradorligi ikki barobarga oshadi Dars jarayonini t o'laqonli b o'lishida o'qituvchining so'zi kamlik qiladi, shunda multimediya vositalari asosida ko'rgazmali qurollardan o'z vaqtida to'g'ri foydalanish ancha qulaylik yaratadi, ya'ni: «Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal» degan xalq hikmatiga amal qilinadi.

Ma'lumki, eshitgan ma'lumotning to'rtidan bir qismi, ya'ni 25-30 foizi xotirada qoladigan bo'lsa, o'quvchilarga berilayotgan materiallarni vedio, slaydlar orqali amalga oshirsak, ma'lumotni xotirada saqlanib qolish va tasavvur qilish imkoniyati 30-60 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, mazkur o'quv dasturlar audio, vedio va grafika ko'rinishida mujassamlashtirilgan holatda o'quvchilarga yetkazilsa, ma'lumotni xotirada saqlab qolish 60-90 foizgacha ortishi kuzatilmoqda.



Bundan tashqari Makromedia flash dasturida tayyorlangan musiqiy o‘yinlar orqali o‘quvchilarning musiqiy savodi hamda eshitish qobiliyatini shakllantirishimiz mumkin. Musiqa madaniyati darsini o‘tishda «Karaoke» dasturi orqali qo‘shiqlarni o‘rganish juda foydalidir. Har bir o‘quvchi o‘z ovoz kengligiga mos keladigan tonallikda, qulay tempda kuylash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa madaniyati darslarini sifat-samaradorligini oshirishda yangicha metod va kompyuter texnologiyalarni o‘rni beqiyos. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya jarayonida ijobiy natijalarga erishishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2016 yil 7 dekabr soni.
2. R. Ishmuhamedov., M. Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: “Nihol nashryoti, 2013 yil 278 bet.
3. Yuldashev U. Yu, Boqiev R. R., Zokirova F. M. Informatika o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. «Talqin» 2004. 187-bet.